

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	

MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ikromov Elyor Ibodulloyevich

Osiyo xalqaro universiteti

«Iqtisodiyot» kafedrası o'qituvchisi

E-mail: elyor4ik2552@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7498-9717

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati misolida mintaqaviy transport tizimini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, infratuzilmaviy, hududiy, institutsional va texnologik omillar atroflicha tadqiq etilgan. Transport xizmatlari hajmining 2010–2025-yillardagi dinamikasi, ushbu xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda viloyat shahar va tumanlari kesimidagi hududiy mutanosibligi statistik usullar yordamida chuqur baholangan. Tadqiqot natijalari transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatishi bilan birga, tarmoq tarkibida avtomobil transportining ustunligi va transport faoliyatining muayyan hududlarda nisbatan yuqori konsentratsiyalashganini oshkor etadi. Shuningdek, maqolada Buxoro shahrida jamoat transporti tizimini optimallashtirish, logistika infratuzilmasini raqamlashtirish hamda avtomobil, temir yo'l va havo transporti integratsiyasini bosqichma-bosqich kuchaytirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida mintaqaviy transport tizimining iqtisodiy samaradorligini barqaror oshirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy transport tizimi, transport infratuzilmasi, transport xizmatlari, logistika, hududiy rivojlanish, multimodal transport, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, Buxoro viloyati.

Аннотация. В данной статье на примере Бухарской области всесторонне исследованы экономические, инфраструктурные, территориальные, институциональные и технологические факторы, влияющие на развитие региональной транспортной системы. С использованием статистических методов проведена глубокая оценка динамики объема транспортных услуг за 2010–2025 годы, их структурного состава, а также территориальных различий между городами и районами области. Результаты исследования демонстрируют высокие темпы роста транспортных услуг, одновременно выявляя значительное преобладание автомобильного транспорта и территориальную концентрацию транспортной деятельности. Рассмотрены перспективные возможности оптимизации системы общественного транспорта города Бухары, цифровизации логистической инфраструктуры и усиления интеграции автомобильного, железнодорожного и воздушного транспорта. На основе проведенного анализа разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по повышению экономической эффективности региональной транспортной системы.

Ключевые слова: региональная транспортная система, транспортная инфраструктура, транспортные услуги, логистика, региональное развитие, мультимодальный транспорт, цифровизация, экономическая эффективность, Бухарская область.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic, infrastructural, territorial, institutional, and technological factors driving the development of the regional transport system, using the Bukhara region as a case study. Statistical methods are employed to evaluate the dynamics of transport services from 2010 to 2025, their structural composition, and spatial disparities across the region's cities and districts. The findings highlight rapid growth in transport services while revealing a strong reliance on road transport and a notable territorial concentration of transport activity. Furthermore, the study explores practical opportunities to optimize public transport in Bukhara, digitalize logistics infrastructure, and enhance the integration of road, rail, and air transport. Based on these insights, the paper formulates scientifically grounded and actionable recommendations aimed at boosting the economic efficiency of the regional transport system.

Keywords: regional transport system, transport infrastructure, transport services, logistics, regional development, multimodal transport, digitalization, economic efficiency, Bukhara region.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda transport tizimi hududlarning ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, turizm va investitsiya salohiyatini o'zaro samarali bog'lovchi va ularning jadal rivojlanishini ta'minlovchi hayotiy muhim infratuzilma hisoblanadi. Transport tarmoqlarining yuksak rivojlanganlik darajasi ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi masofani iqtisodiy jihatdan sezilarli darajada qisqartiradi, yuk va yo'lovchilar harakatini tezlashtiradi, biznes xarajatlarini maqbullashtiradi hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Taniqli olim J.P. Rodrigue transport va hududiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilar ekan, transport tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatni makonda oqilona tashkil etish, bozorlar integratsiyasini chuqurlashtirish va logistika xarajatlarini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydi [1].

Transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi va ijobiy ta'siri faqatgina yangi yo'l yoki transport obyektlarini barpo etish bilan cheklanmaydi. Uning haqiqiy natijadorligi mavjud tarmoqdan foydalanish darajasi, transportda vaqtni tejash, xizmatlarning ishonchligi, hududiy qamrov kengligi, harakat xavfsizligi, logistika xarajatlarining maqbulligi, transport turlari o'rtasidagi uzviy integratsiya hamda zamonaviy boshqaruv sifatiga bevosita bog'liqdir. T. Litman transport siyosatining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashda bandlik, unumdorlik, raqobatbardoshlik, transport xarajatlari va hududiy kirish imkoniyatlarini kompleks hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab beradi [2].

O'zbekiston sharoitida mazkur masalaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Mamlakatning dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati mavjud emasligi transport va logistika xarajatlarining milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sirini sezilarli darajada kuchaytiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston transport sektori mamlakat iqtisodiyotining qariyb 8 foizini shakllantiradi va ushbu sohada 1 millionga yaqin kishi mehnat qilmoqda. E'tiborlisi, olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimiz Jahon bankining «Logistika samaradorligi indeksi»da (LPI) 2014-yildagi 129-o'rindan 2023-yilda 88-o'ringa ko'tarilib, sezilarli ijobiy natijaga erishdi [3].

Buxoro viloyatida transport tizimini strategik rivojlantirish masalasi hududning qulay geografik o'rni, yuksak turizm salohiyati, jadal o'sayotgan sanoat ishlab chiqarishi, xalqaro va mintaqalararo avtomobil yo'llarining mavjudligi hamda katta tranzit imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, 2025-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti 86,6 trillion so'mga yetib, 7,2 foizlik o'sishni namoyon etdi, xizmatlar sohasi esa 14 foizga kengaydi [12]. Hududda iqtisodiy va xizmat ko'rsatish faolligining bunday jadal kengayishi zamonaviy transport xizmatlariga bo'lgan talabni ham mutanosib ravishda oshirmoqda.

Shu sababli Buxoro viloyatida transport tizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish, mavjud transport xizmatlarining hududiy va tarkibiy holatini xolis baholash hamda ushbu tizim samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — Buxoro viloyati mintaqaviy transport tizimining rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, shuningdek, transport tizimining iqtisodiy va hududiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy transport tizimlarini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda turli fundamental yondashuvlar va zamonaviy konsepsiyalar asosida keng o'rganilgan.

Jumladan, J.P. Rodrigue transport geografiyasi nuqtai nazaridan transport tarmoqlari, terminallar, logistika, intermodal tashuvlar va hududiy iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi uzviy va tizimli bog'liqlikni mukammal asoslab bergan. Muallif yondashuviga ko'ra, transport tarmog'ining haqiqiy samaradorligi faqatgina uning uzunligi yoki jismoniy quvvati bilan emas, balki iqtisodiy makonda yaratadigan strategik bog'lanishlari va qulay kirish imkoniyatlari (*accessibility*) bilan belgilanadi [1].

T. Litman transport infratuzilmasiga kiritiladigan investitsiyalar natijadorligini baholashda bir qancha ijobiy ko'rsatkichlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Xususan, u transportda vaqtni tejash, yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish, ishlab chiqarish resurslari va bozorlar o'rtasidagi aloqalarni sifat jihatidan yaxshilash, yo'l-transport xarajatlarini maqbullashtirish hamda umumiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish kabi kompleks omillarga alohida e'tibor qaratadi [2].

Jahon banki tomonidan O'zbekiston infratuzilmasini boshqarish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda mavjud transport obektlarini saqlash va modernizatsiya qilish uchun zarur moliyalashtirish imkoniyatlari, logistika to'siqlarini bartaraf etish hamda transport xizmatlari sifatini oshirish mamlakatning tranzit salohiyatidan to'liq va samarali foydalanishda muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan [4].

Shuningdek, Jahon bankining O'zbekistonda integratsiyalashgan transport va logistika tizimini shakllantirishga bag'ishlangan siyosiy tadqiqotida avtomobil, temir yo'l va havo transportini yagona uyg'un

tizim sifatida rivojlantirish, logistika xarajatlarini sezilarli kamaytirish, institutsional islohotlarni izchil davom ettirish va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan keng foydalanish transport siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan [5].

Osiyo taraqqiyot bankining «*CAREC Transport Strategy 2030*» dasturiy hujjatida esa mintaqaviy transport samaradorligiga erishishda transchegaraviy logistikani rivojlantirish, yo'l aktivlarini zamonaviy boshqarish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, temir yo'l, aviatsiya va multimodal transport turlarini o'zaro integratsiyalashtirish holda yuksaltirish asosiy vazifalar sifatida ko'rsatilgan [6].

Mahalliy olimlarimiz tomonidan ham Buxoro viloyati transport tizimining o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollari chuqur o'rganilgan. Jumladan, R.M. Nuriddinov transport tarmoqlarini hududning iqtisodiy va strategik rivojlanishiga ta'sir etuvchi hal qiluvchi omil sifatida tahlil qilib, viloyatning magistral transport yo'llari va qulay geografik joylashuvining yuqori iqtisodiy salohiyatini yoritib bergan [7].

B.Q. G'aybullayev transport-logistika tizimini optimallashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasini Buxoro logistika markazi misolida tadqiq etgan. Olim o'z ishida GPS-monitoring, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari hamda raqamli rejalashtirish kabi texnologiyalar transport xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va logistika operatsiyalari tezligini oshirishini amaliy misollar bilan ko'rsatib bergan [8].

Buxoro transport tizimiga bag'ishlangan so'nggi ilmiy va empirik izlanishlardan birida E. Farmanov, N. Omonova, N. Ibragimov va boshqalar geoinformatsion tizimlar (GIS), transport oqimlarini modellashtirish va ekonometrik usullar yordamida Buxoro shahrining «*Transport Master Plan*» loyihasini chuqur baholaganlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yo'nalishlarni qayta optimallashtirish, svetoforlar boshqaruvini o'zaro muvofiqlashtirish va bekatlarni modernizatsiya qilish orqali jamoat transportining umumiy qamrovdagi ulushini 14 foizdan 30 foizga oshirish hamda aholining o'rtacha safar vaqtini 32,3 daqiqadan 23,4 daqiqagacha qisqartirish kabi yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish imkoniyati mavjud [9].

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy transport tizimi samaradorligini oshirish uchun faqatgina jismoniy infratuzilmani kengaytirish yetarli emas. Bunga qo'shimcha ravishda transport oqimlarini oqilona optimallashtirish, multimodal integratsiyani chuqurlashtirish, jarayonlarni raqamlashtirish, hududiy kirish imkoniyatlarini yaxshilash hamda samarali institutsional boshqaruv mexanizmlarini bir vaqtning o'zida, kompleks ravishda amalga oshirish taqozo etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT axborot tizimi, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va transport infratuzilmasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Tahlilda 2010–2025-yillarda Buxoro viloyatida ko'rsatilgan transport xizmatlari hajmi, 2020–2025-yillarda viloyat shahar va tumanlari bo'yicha transport xizmatlari ko'rsatkichlari hamda 2025-yilda transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibiy ma'lumotlar qo'llanildi [10; 11].

Tadqiqotda dinamik tahlil, tarkibiy tahlil, hududiy qiyosiy tahlil, indeks usuli, tizimli tahlil va ilmiy sintez metodlaridan foydalanildi. Dinamik tahlil transport xizmatlari hajmining vaqt davomida o'zgarishini; tarkibiy tahlil alohida transport xizmatlari turlarining jami hajmdagi ulushini; hududiy qiyosiy tahlil esa shahar va tumanlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv transport tizimining infratuzilmaviy, iqtisodiy, institutsional va texnologik omillarini o'zaro bog'liq elementlar sifatida baholash uchun qo'llanildi.

$$K_i = T_{i,2025} / T_{i,2020}$$

bu yerda K_i — i-hudud bo'yicha transport xizmatlari o'sish koeffitsiyenti; $T_{i,2025}$ va $T_{i,2020}$ — tegishli hududda 2025 va 2020-yillarda ko'rsatilgan transport xizmatlari hajmi.

$$U_j = (X_j / X) \times 100$$

bu yerda U_j — j-xizmat turining jami transport xizmatlaridagi ulushi; X_j — alohida xizmat turi hajmi; X — jami transport xizmatlari hajmi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatida transport xizmatlari bozori uzoq muddatli davrda barqaror va yuqori o'sish tendensiyasini namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda ko'rsatilgan transport xizmatlari hajmi 2010-yildagi 391,4 milliard so'mdan 2025-yilga kelib 7 661,6 milliard so'mga yetdi va nominal hajm jihatidan 19,6 barobarlik sezilarli o'sishni qayd etdi.


Ta'kidlash joizki, ushbu ko'rsatkichlar joriy narxlardagi xizmatlar hajmini ifodalashi bilan birga, viloyatda transport va logistika sohasining jadal kengayib borayotganini hamda uning regional iqtisodiyotdagi o'rni izchil mustahkamlanib borayotganini ijobiy ko'rsatkich sifatida namoyon etadi [10] (1-jadval).



1-jadval

Buxoro viloyatida transport xizmatlari hajmining dinamikasi
(2010–2025-yillar)¹

Yillar	Transport xizmatlari hajmi, mlrd so'm	2010-yilga nisbatan, marta
2010	391,4	1,0
2015	1 273,0	3,3
2020	2 637,0	6,7
2021	3 398,4	8,7
2022	3 797,2	9,7
2023	4 634,2	11,8
2024	5 868,0	15,0
2025	7 661,6	19,6

1-rasm. Buxoro viloyatida transport xizmatlari hajmi dinamikasi²

2025-yilda Buxoro viloyatida transport xizmatlarining o'sish sur'ati **117,6 foizni** tashkil etib, yuqori dinamikani namoyon qildi. Ushbu salmoqli ijobiy ko'rsatkich hududda transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarining jadal kengayishi, transport infratuzilmasini izchil modernizatsiya qilish hamda umumiy iqtisodiy faollikning yuksalishi bilan izohlanadi [10].

Transport xizmatlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish mintaqaviy tizimning o'ziga xos strategik xususiyatlarini ko'rsatadi. Xususan, viloyatda avtomobil transporti yetakchi o'rinni egallab turibdi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, avtotransport xizmatlari jami transport xizmatlari hajmining 90,5 foizini, omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari 8,5 foizini, pochta va kuryerlik xizmatlari esa 1,1 foizini tashkil etdi [11] (2-jadval).

2-jadval

Buxoro viloyatida transport xizmatlarining tarkibi
(2025-yil)³

Transport xizmatlari turi	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %
Avtotransport xizmatlari	6 930,4	90,5
Omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari	649,6	8,5
Pochta va kuryerlik xizmatlari	81,6	1,1
Jami	7 661,6	100,0

Avtomobil transporti xizmatlarining 90,5 foizlik yuqori ulushi, bir tomondan, ushbu transport turining yo'lovchi hamda yuk tashishdagi yuksak moslashuvchanligi, tezkorligi va aholi punktlarini o'zaro bevosita bog'lash borasidagi qulay imkoniyatlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tarmoqning bunday tarkibiy tuzilishi mintaqaviy transport tizimida multimodal diversifikatsiyani chuqurlashtirish uchun ulkan foydalanilmagan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining SIAT ochiq ma'lumotlar portali ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [10].

2 SIAT ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi [10].

3 Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi [11].

zaxiralar va istiqbollar mavjudligini ko'rsatadi.


Avtomobil yo'llaridagi yuklamani maqbullashtirish, infratuzilmani saqlash xarajatlarini samarali boshqarish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda harakat xavfsizligini yanada oshirish maqsadida viloyatda temir yo'l, havo va avtomobil transporti integratsiyasini (multimodal tashuvlarni) bosqichma-bosqich kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval

Buxoro viloyati shahar va tumanlarida transport xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati (2020–2025-yillar)⁴

Hudud	2020-yil, mlrd so'm	2025-yil, mlrd so'm	2025/2020, marta
Buxoro shahri	448,9	1 732,3	3,86
G'ijduvon tumani	399,7	1 199,3	3,00
Jondor tumani	181,2	547,4	3,02
Buxoro tumani	138,7	499,9	3,60
Romitan tumani	161,9	464,3	2,87
Vobkent tumani	129,5	410,7	3,17
Kogon shahri	115,5	398,9	3,45
Peshku tumani	135,2	360,9	2,67
Shofirkon tumani	112,0	348,0	3,11
Olot tumani	120,2	301,6	2,51
Qorako'l tumani	115,0	299,1	2,60
Kogon tumani	105,5	247,6	2,35
Qorovulbozor tumani	75,2	200,7	2,67

Hududlar bo'yicha transport xizmatlari hajmi, 2025-yil



2-rasm. Buxoro viloyati hududlari bo'yicha transport xizmatlari hajmi (2025-yil)⁵

2025-yil yakunlariga ko'ra, Buxoro shahri transport xizmatlari hajmi 1 732,3 milliard so'mga yetib, viloyat bo'yicha jami ko'rsatilgan xizmatlarning salmoqli qismini (22,6 foizini) ta'minladi. Shu bilan birga, G'ijduvon tumanida ham yuqori ko'rsatkich qayd etilib, transport xizmatlari hajmi 1 199,3 milliard so'mni tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Buxoro shahri, G'ijduvon, Jondor va Buxoro tumanlari viloyat transport xizmatlari bozorining eng drayver va yirik hududlari sifatida namoyon bo'lmoqda [10]. Ushbu hududiy ko'rsatkichlarning jadal o'sishi hamda ijobiy dinamikasi aholi va iqtisodiy faollikning yuqori darajada jamlangani, savdo, sanoat

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [10].

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi [10].



va turizm tarmoqlarining jadal rivojlanayotgani hamda magistral avtomobil va temir yo'l tarmoqlariga qulay tutashgani bilan uzviy bog'liqdir (4-jadval).

4-jadval

Buxoro viloyati transport tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar⁶

Omilar guruhi	Asosiy mazmuni	Transport tizimiga ta'siri
Iqtisodiy	Sanoat, savdo, turizm, xizmatlar sohalari va investitsiyalar hajmi	Yuk va yo'lovchi tashish oqimlarini hamda talabni mutanosib oshiradi
Hududiy-demografik	Aholi zichligi va joylashuvi, urbanizatsiya darajasi hamda masofalar	Yo'nalishlar tarmog'i va hududiy transport talabini shakllantiradi
Infratuzilmaviy	Avtomobil yo'llari holati, temir yo'l, aeroport va logistika terminallari	Yo'llarning o'tkazuvchanlik quvvati hamda tashuvlar tezligini belgilaydi
Texnologik	GPS-monitoring, ITS (Aqlli transport tizimi), elektron chipta, raqamli logistika	Transport xarajatlari va safar vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi
Institutsional	Davlat boshqaruvi, DXSh (Davlat-xususiy sheriklik), tarif va regulyator siyosati	Investitsiyalar va xizmatlar sifati uchun qulay huquqiy sharoit yaratadi
Ekologik va turistik	Tarixiy-madaniy meros, emissiya darajasi hamda turistik oqim	Ekologik toza va barqaror mobillik (<i>sustainable mobility</i>) talablarini kuchaytiradi

Buxoro viloyati transport tizimini jadal rivojlantirishning eng muhim va drayver omillaridan biri turizm sohasi hisoblanadi. Tarixiy Buxoro shahrida transport samaradorligini oshirish o'ziga xos yondashuvni talab etadi, chunki bu yerda harakatlanish qulayligini ta'minlash ulkan madaniy meros obyektlarini saqlash talablari bilan mutanosib ravishda uyg'unlashtirilishi zarur. Geoinformatsion tizimlar (GIS) asosida ishlab chiqilgan Buxoro transport modeli shuni ko'rsatadiki, yo'nalishlarni oqilona optimallashtirish, svetoforlar boshqaruvini muvofiqlashtirish hamda bekatlarni modernizatsiya qilish natijasida:

- Jamoat transportining modal ulushini 14 foizdan 30 foizga oshirish;
- O'rtacha safar vaqtini 32,3 daqiqadan 23,4 daqiqagacha qisqartirish;
- 30 daqiqalik masofada yetib borish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi ulushini 66,3 foizdan 81,2 foizgacha kengaytirish kabi yuqori iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka erishish mumkin [9].

Ushbu ilg'or va ilmiy yondashuv Buxoro viloyatining boshqa yirik aholi punktlari uchun ham muhim metodologik va amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qulay transport yo'nalishlarini shakllantirishda faqatgina mavjud talab bilan cheklanmay, balki aholi zichligi, ish o'rinlari, bozorlar, ta'lim muassasalari, turistik obyektlar va transport-almashuv tugunlarining GIS texnologiyalari asosidagi hududiy joylashuvini kompleks hisobga olish lozim. Zotan, transport infratuzilmasining kelajakdagi iqtisodiy samaradorligi faqat yangi obyektlarni barpo etish bilangina emas, balki ularni yagona va puxta integratsiyalashgan multimodal tarmoqqa birliktirish darajasi bilan belgilanadi.

Buxoro viloyatining transport infratuzilmasi istiqbolda yirik va strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda. Xususan, viloyatda aylanma yo'llarni barpo etish, "G'uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu" hamda "Samarqand – Buxoro – Turkmanboshi" xalqaro magistral yo'nalishlarining strategik qismlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha ulkan vazifalar belgilangan [13]. Shuningdek, zamonaviy Buxoro yangi xalqaro aeroporti loyihasi doirasida yangi uchish-qo'nish yo'lagi, zamonaviy yo'lovchi terminali hamda aeroportga olib boruvchi qulay avtomobil yo'llarini rivojlantirish rejalashtirilgan [12]. Ushbu muhtasham loyihalarning iqtisodiy va tranzit samaradorligi Buxoro shahri, Kogon temir yo'l stansiyasi, turistik markazlar hamda magistral avtomobil yo'llari o'rtasida uzviy va vaqtga tejamkor integratsiya ta'minlanganda yanada yuqori bosqichga ko'tariladi.

O'tkazilgan tahlillardan kelib chiqib, Buxoro viloyati transport tizimi samaradorligini faqatgina ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan emas, balki:

1. Transportda vaqtni tejash;
2. Logistika xarajatlarini maqbullashtirish;
3. Hududiy qamrov kengligi;
4. Tashuvlarning ishonchligi va xavfsizligi;
5. Tarmoqlararo multimodal integratsiya;
6. Ekologik barqarorlik kabi amaliy va natijaviy mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Bunday ilg'or yondashuv yo'naltirilayotgan har bir infratuzilmaviy investitsiya birligining aholi va biznes vakillari uchun yaratgan real iqtisodiy hamda ijtimoiy samarasini aniq belgilash imkonini beradi.

6 Ilmiy adabiyotlar va statistik tahlil ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot Buxoro viloyatida transport xizmatlari bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanganini ko'rsatdi. 2010–2025-yillar davomida transport xizmatlarining nominal hajmi 391,4 mlrd so'mdan 7 661,6 mlrd so'mgacha oshgan. Shu bilan birga, transport xizmatlarining tarkibiy tahlili avtomobil transporti xizmatlarining 90,5 foizlik ulushga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa viloyat transport tizimini diversifikatsiya qilish, avtomobil, temir yo'l va havo transportining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish zarurligini asoslaydi [10; 11]. Tadqiqot natijalariga asoslanib, Buxoro viloyatida mintaqaviy transport tizimi samaradorligini oshirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari taklif etiladi: birinchidan, investitsiyalarni transportdan foydalanish imkoniyati va iqtisodiy salohiyat o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lgan tumanlarga maqsadli yo'naltirish; ikkinchidan, Buxoro shahri – Kogon temir yo'l stansiyasi – yangi xalqaro aeroport – magistral avtomobil yo'llari o'rtasida yagona multimodal transport-logistika tizimini shakllantirish; uchinchidan, jamoat transportida GIS, GPS monitoring, elektron chipta va real vaqt rejimidagi axborot tizimlarini keng joriy etish; to'rtinchidan, ombor, terminal, yuklarni konsolidatsiya qilish, sovuq zanjir logistikasi va intermodal tashish xizmatlarini rivojlantirish; beshinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida transport va logistika infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni faol jalb qilish; oltinchidan, transport tashkilotlari va infratuzilma loyihalarini baholashda safar vaqti, xarajat, hududiy qamrov, ishonchlilik, xavfsizlik va ekologik samaradorlik kabi natijaviy mezonlardan foydalanish. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish Buxoro viloyatida transport tizimining nafaqat jismoniy infratuzilmasini, balki uning iqtisodiy, hududiy va ekologik samaradorligini oshirishga, transport xarajatlarini qisqartirishga hamda viloyatning sanoat, turizm, savdo va investitsion salohiyatidan yanada to'liq foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodrigue J. P. *The Geography of Transport Systems*. 6th ed. – Routledge, 2024. – 402 p. URL: <https://www.routledge.com/The-Geography-of-Transport-Systems/Rodrigue/p/book/9781032380407>
2. Litman T. *Evaluating Transportation Economic Development Impacts*. – Victoria Transport Policy Institute, 2025. URL: https://vtpi.org/econ_dev.pdf
3. World Bank. *Uzbekistan to Modernize Transport Infrastructure and Reform the Sector with Support from the World Bank*. – Washington, 2026. URL: <https://www.worldbank.org/uz/news/press-release/2026/03/23/uzbekistan-to-modernize-transport-infrastructure-and-reform-the-sector-with-support-from-the-world-bank>
4. World Bank. *Uzbekistan Infrastructure Governance Assessment*. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099120723131526176>
5. World Bank. *Uzbekistan: Building Blocks for Integrated Transport and Logistics Development*. Policy Paper. – Washington, D.C. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/620601593145818606/pdf/Uzbekistan-Building-Blocks-for-Integrated-Transport-and-Logistics-Development-Policy-Paper.pdf>
6. Asian Development Bank. *CAREC Transport Strategy 2030*. – Manila: ADB. URL: <https://www.adb.org/documents/carec-transport-strategy-2030>
7. Nuriddinov R. M. Transport tarmoqlari – hudud iqtisodiy va strategik taraqqiyotining muhim omili sifatida (Buxoro viloyati misolida) // *Educational Research in Universal Sciences*. URL: <https://erus.uz/index.php/er/article/view/3683>
8. G'aybullaev B. Q. Transport-logistika tizimini optimallashtirishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi (Buxoro logistika markazi misolida) // *Science and Education*. – 2026. – Vol. 7, Issue 2. URL: <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/8545/7896/15255>
9. Farmanov E., Omonova N., Ibragimov N., Juraev A., Bujdosó Z., Dávid L. D. GIS-based public transport network optimization in UNESCO World Heritage cities in the example of Bukhara, Uzbekistan // *Frontiers in Sustainable Cities*. – 2026. – Vol. 8. DOI: 10.3389/frsc.2026.1782977.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Transport xizmatlari hajmi: 2010–2025-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar*. SIAT. URL: <https://siat.stat.uz/data/1213/?lang=uz>
11. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. *Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr*. – Buxoro, 2026. URL: https://buxstat.uz/uploads/press-reizlar/2025/xizmat/xizmat_dekabr.pdf
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy materiallari. *Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va transport infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha materiallar*. – 2026. URL: <https://president.uz/>
13. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy materiallari. *Buxoro viloyatida transport infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari*. – 2026. URL: <https://digital.gov.uz/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100